

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



Namangan to'qimachilik sanoati  
instituti rektori  
Yusupov Q.M. Xoliqov  
2024 yil “28” 08.

«TIKUV BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARI VA  
NAZORATASOSLARI»  
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300000-	Ishlab chiqarish texnik sohasi
Ta'lif sohasi:	320000-	Ishlab chiqarish texnologiyalari
Ta'lif yo'nalishi:	5320900-	Yengil sanoat buyumlari konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari) (sirtqi)

Fan dasturi Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Kengashining 2024-yil  
“26” 08 dagi “1” –sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Namangan to‘qimachilik sanoati institutida ishlab chiqildi.

### **Tuzuvchilar:**

**A Xojiyev** – Namangam to‘qimachilik sanoati instituti “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyalash va texnologiyasi” kafedrasi professor v.b

**B Dadamirzayev** – Namangam to‘qimachilik sanoati instituti “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyalash va texnologiyasi” kafedrasi assistent

### **Taqrizchilar:**

**N.B Maqsudov** Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyalash va texnologiyasi” kafedrasi mudiri, t.f.n., dots.

**O. Yunusov** – “ORZU IDIAL TEKSTIL” MCHJ rahbari

## **I. O‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni**

«Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari» asosiy umumkasbiy fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalarshirilgan aniq va tabiiy, umumkasbiy fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda turli yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalari tashkil topgan. Bu korxonalarda tayyorlanadigan buyumlar nafaqat ichki, bozor balki jahon bozori talablariga javob berishi shart.

Shuning uchun «Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari» fani mutaxassislik fanlardan biri bo‘lib, ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo‘g‘inidir.

«Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari» fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

- moda yo‘nalishiga mos eskizlar ishlab chiqish;
- konstruktsiya qurish usulini va dastlabki ma’lumotlarni tanlash;
- tikuv buyumlarini loyihalash va ishlov berish texnologiyasi haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- model eskizlarini ishlab chiqishni;
- dastlabki ma’lumotlar asosida asos va model konstruksiyasini ishlab chiqishni;
- ishchi hujjatlarni ishlab chiqishni;
- kiyim nuqsonlarini aniqlash va ularni bartaraf qilishni;
- tikuv buyumlarini biriktirish usullarini;
- tikuv buyumlarini tayyorlash bo‘yicha konstruktorlik – texnik hujjatlarini ishlab chiqishni bilish va ulardan foydalana olish;
- odam qomatidan o‘lchov olish; texnik hujjatlar bilan ishlash;
- tikuv buyumlari konstruksiyasi va andozasi chizmalarini tayyorlash;
- buyum bichish va tikish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kerak.

## **II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi**

### **“Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari”**

Fanni o‘qitishidan maqsad – talabalarni yengil sanoat ommaviy ishlab chiqarish korxonalarida kiyimni loyihalash, bichish va tikish usullari, ustki va yengil kiyim tikish texnologiyasi asoslari va buyum sifatini nazorati bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilimlar darajasi bilan ta’minlashdir.

Fanning vazifasi - talabalarda ushbu fan bo‘yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs loyihasi va bitiruv ishlarini bajarish bilan real sharoitga qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish.

### **III. Asosiy nazariy qism** **Ma’ruza mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

#### **1-mavzu. “Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari” maqsad va mazmuni.**

«Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari» fanining maqsad va vazifalari boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi, fanning bilim sohasi va beradigan ko‘nikmasi, moda yo‘nalishiga mos eskizlar, ishchi hujjatlarni ishlab chiqish, nazorat ob’ekti, nazorat usulini tanlash, nazorat natijalari, tikuv laboratoriyasi.

#### **2-mavzu. Kiyim xaqida umumiylar malumot. Kiyim funksiyalari va ularga qo‘yiladigan talablar.**

Kiyim, insonning ilk rivojlanish davri, daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog’lab yurishgan, kostyum, ansambl, komplekt, garnitur, libos, garderob, model, iste’molchi va sanoat talablari, kiyimning funksiyalari.

#### **3-mavzu. Kiyim tikishda qo‘llaniladigan materiallar. Zamonaviy gazlama assortimenti va turlari.**

Tikuvchilik materialarining assortimenti, paxta va zig‘ir tolali gazlamalar assortimenti, trikotaj matolar assortimenti, ipak va jun gazlamalar assortimenti.

“kompleks” yoki “to‘plam”, Mayin movut gazlamalar, ip gazlamalar, reps gazlamasi, Choyshabbop surplar, krep-jorjet, Batist, kostum, shim, palto, kurtka, plash.

#### **4-mavzu. Kiyim tikishga gazlama xususiyatlarining ta’siri.**

Gazlama turining buyum bichimiga bog’liqligi, tikuvchilikda qo‘llaniladigan ipler. Gazlamaning qalinligi, gazlamaning zichligi, pardozlash jarayoni, g‘altak ipler, ipler, GOST, pribor, qalinlik o‘lchagich, bosish, tuk chiqarish.

#### **5-mavzu. Kiyim shakli va konstruktiv xususiyatlar.**

Kiyimning shakli xarakteristikalari, kiyimning konstruktiv xususiyatlari, kiyimning shakli muhim kompozitsion element, chiziqlari, bezaklari, ko‘rinadigan choklari, gazlamaning turi uning sirti, rangi, shakllanish xususiyatlari, kiyimning to‘kislik darajasi, kiyim shaklining ichki tuzilishi, odam figurasining plastik shakli.

### **IV. Labaratoriya mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

1. Tikuv buyumlari assortimenti va uning klassifikatsiyasi.
2. Buyumlarga qo‘yiladigan talablar.
3. Kiyimlarning vazifasiga ko‘ra tasniflari.

4. Mashina choklari: biriktiruvchi choklar, ziy choklar, bezak choklar. Tikuv buyumlarni sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baxolash.
5. Tikuv buyumlari konstruktsiyasi bo‘yicha klassifikatsiyasi (silueti, yoqa, yengi, taqilmasi, cho‘ntagi va h-k). Gazlama turining buyum bichimiga va texnologik ishlov berilishiga bog‘liqligi.
6. Kiyim shakli va konstruksiv xususiyatlari
7. “Odam – kiyim” sistemasi haqida tushuncha.
8. Razmer tipologiyasi. Qomat o‘lchamlarini olish tipovoy qomatni aniqlash.
9. Furnitura:tugma, ilgak, piston, “molniyali” tasmalar, tikuv iplari va ularning klassifikatsiyasi.

## **V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

### **Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

- 1.Tikuv buyumlari assortimentlari bilan tanishish va albom namuna tayyorlash.
- 2.“Odam –kiyim“ sistemasi mavzusida taqdimot tayyorlash.
- 3.Yengil sanaot xom ashyolari va ularning turlari.
- 4.Tikuvchilik korxonalarida xom ashyoni qabul qilish tartibi.
- 5.Ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan sifat nazorati tadbirlari.\*\*
- 6.Buyumlarga qo‘yiladigan talablar haqida taqdimot materiali tayyorlash.
- 7.Tikuvchilik korhonalarida texnika xavfsizligi qoidalari haqida ko‘rgazmali material tayyorlash.
- 8.Zamonaviy tikuv mashinalari turlari haqida taqdimot slayd yaratish.
- 9.Kiyim detallarini biriktirish usullari albom namunasini tayyorlash
- 10.Sifatni baholash.\*\*
- 11.Qomat o‘lchamlarini olish usullari albom namunasini tayyorlash.
- 12.Bichuv sexining mashina va uskunalari
- 13.Ayollar ustki kiyimiga ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash.
- 14.Tayyorlov bo‘limida texnik nazorat.
- 15.Erkaklar shimiga ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash.
- 16.Pardozlash bo‘limlarida texnik nazorat tartibi.\*\*
- 17.Bichish sexidagi texnologik jarayon va uni nazorat qilish tartibi.
- 18.Sifat nazorati jadvallari va ularning talqini (Quality control charts and their interpretation)\*

- 19.Bolalar sarochkasiga ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash
- 20.Tikuv ishlarida o‘lchash va nazorat qilish (Measurement and controls in sewing operation)\*
- 21.Material sifatini tekshirish mashinalari.\*\*
- 22.Erkaklar pidjagiga ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash.
- 23.Yengil sanoatda foydalaniladigan statik sinov uskunalari.
- 24.Yengil sanoatda foydalaniladigan dinamik sinov uskunalari.
- 25.Ayollar zamonaviy milliy libosiga ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash
- 26.Gazlamalarni sifat ko‘rsatkichlarini tekshirish tartibi.
- 27.Erkaklar qishki bosh kiyimiga ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash.
- 28.Ccharm va uning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash.
- 29.Bolalar sport uslubidagi kalta shimga ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash.
- 30.Kiyim mahsulotlarini qadoqlashda texnik nazorat tartibi.\*\*
- 31.Cho‘ntakka ishlov berish texnologik ketma-ketligini tuzish va albom namunasini tayyorlash.
- 32.Tikuv buyumlarini turli standartlar bo‘yicha o‘lchamlari.  
*Izoh\* Indian Institute of Technology Delhi (IITD), 197QSWorld University Rankings*  
*\*\*Iftihor kiyim sanoati MCHJ, Fazman textile MCHJ, Imron Textile Group X/K Ideal Texstil Orzu MCHJ korxonalari taklifidan olingan.*

## **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Kamilova X.X. Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash». Darslik. - T.: «Cho'lpon», 2011 u. - 400 bet.
2. Samarxodjaev X.X. «Tikuv korxonalari uskunlari», O'quv qo'llanma.- T. «Uzbekiston» 2001 y.-127 bet.
3. Jabborova M.SH.«Tikuvchilik texnologiyasi». Darslik. T., «Uzbekiston». 1994-y.-414 bet.
4. N.N.Nabidjanova., M.A.Rizametova., D.X.Rayimberdiyeva., R.A.Ergasheva “Tikuv buyumlari texnologiyasi” o'quv qo'llanma. Namangan-2020 yil. 230 bet.
5. J.S.Ergashev., N.N.Nabidjanova., R.S.Hojimatov., D.Adilova “Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi” o'quv qo'llanma. Toshkent-2013 yil. 220 bet.
6. J.S.Ergashev., N.N.Nabidjanova., N.B.Maqsudov N.B., “Tikuv buyumlari texnologiyasi” darslik. Namangan-2022 yil.
7. Rasulova M.K “Tikuv buyumlari texnologiyasi”. Darslik Toshkent-2018 yil. 227 bet.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. А.Т. Труханова «Технология женской и детской легкой одежды», Усебник. М., «Высшая школа»2005г.-416стр.
2. Персхина Л.Ф. «Технология швейного производства» М. Легпромиздат. 1991 г (елек)-416стр.

### **Axborot manbaalari**

8. <http://ziyonet.uz>
9. <http://title.uz>
10. [www.legprominfo.ru](http://www.legprominfo.ru)
11. [www.sarafan.ru](http://www.sarafan.ru)
12. [www.rieter.com](http://www.rieter.com)
13. [www.javascript.ru](http://www.javascript.ru)
14. [www.textil-press.ru](http://www.textil-press.ru)
15. [www.fatex.ru](http://www.fatex.ru)
16. [www.loom.com](http://www.loom.com)
17. [www.osinka.ru](http://www.osinka.ru)
18. [www.sewmaching.ru](http://www.sewmaching.ru)
19. [www.cloud.uz](http://www.cloud.uz)
20. [www.duerkopp-adler.kom](http://www.duerkopp-adler.kom)
21. [www.ateliemagazine.ru](http://www.ateliemagazine.ru)

